

“JINOYAT VA JAZO” ASARIDA QAHRAMON RUHIYATI

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
 O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich
 talabasi **Ne'matova Sevinch Shuhrat qizi**
 Ilmiy rahbar O'zbek tili va adabiyoti kafedrasи o'qituvchisi
Imomqulova Gulchehra Norboboyevna*

Annotatsiya

Ushbu maqolada “Jinoyat va jazo” romani qahramoni ruhiyati, ichki kechinmalari, iztiroblari haqida fikr yuritilgan. Qahramonlarning ichki kechinmalari, obrazlarning ruhiy holatlari siyratini aks ettirishdagi o'ziga xosliklar, qahramonlarning ijtimoiy hamda ruhiy holat talqinlari haqida munosabat bildirilgan.

Kalit so'zlar: jinoyat, jazo, ruhiy kechinma, iztirob, axloq, sevgi, insoniylik.

Fyodor Dostayevskiy inson ruhining eng murakkab jihatlarini ham ochib berishga qodir bo'lgan adabiyotshunos yozuvchidir. Dostayevskiy adabiyotdagi haqiqiy mahorat va insoniyatning chuqur tushinilish ramzidir. U “Jinoyat va jazo” asari asoschisi. Yozuvchi bu asarini 1866-yilda yakunlagan. Bu asar insonlar psixologiyasidagi bir qator muammolarga javob topishiga yordam bergen. Ushbu asasarda Raskolnikovning jinoyati va uning oqibatlari, uning ruhiy holatini va ichki azobini kuchaytirishga sabab bo'lgan voqealar tasvirlangan. “Adabiyot ruhiyat alifbosidir. Inson ruhiyatini anglash mushkul, mashaqqatli. Badiiy adabiyot inson qalbini, ruhiyatini tushunish sari yo'l ochadi...”¹ Asarda Raskolnikovning qilgan jinoyatiga yarasha olgan jazosi, uning ruhiy azobini yengillashishiga yordam bergen. Dostayevskiy insonlarga berilgan aql, xulq, farosat unda yomonlik yo'qligini ko'rsatib bermasligini ochib bergen. Jinoyat jazosiz qolmaydi deganlaridek, asar ham o'z qahramonlarini jazosiz qoldirmaydi.

Rodion Raskolnikov asarning bosh qahramoni hisoblanadi. O'zi talaba, shunday bo'lsa-da, o'zini boshqalardan ustun deb o'ylaydi. Hattoki, jinoyat qilishga ham haqli deb biladi. Jinoyatni amalga oshirgach, ruhiy holatida ziddiyatlar kelib chiqadi. U o'zining harakatlarini doimo to'g'ri deb hisoblashga harakat qiladi, ammo asar so'ngida insoniylik hislarini inkor eta olmaydi. Asarda Raskolnikovning onasi va singlisining tavsifi ham keltirilgan. Onasi Pulcheriya Aleksandrovna juda ko'p qiyinchiliklarga duchor bo'lgan ayol, u o'g'lining ta'lim olishi uchun ko'p mehnat qilgan va kelajagini yaxshilash uchun intilgan. Og'liga juda mehribon, uni muvaffaqiyatlari va qiyinchilikari uchun doimo qayg'urgan ayoldir. U doimo o'g'lini

¹ Bahodir Karim “Ruhiyat alifbosi” Toshkent-2018-yil, 2-bet.

qo'llab-quvvatlashga tayyor faqat uning ruhiy holatini tushuna olmasdi. Oilaviy ahvolni yaxshilash uchun o'z qizi Dunyani Luzhin degan kishiga uzatmoqchi bo'ladi. Dunya Raskolnikovning singlisi. U kuchli, to'g'ri so'z, sofdir va matonatli qiz deb ta'riflasak bo'ladi. Dunya oilasining moliyaviy ahvolini yaxshilash, onasi uchun qulay sharoit yaratish uchun Luzhin bilan turmush qurishga rozi bo'ladi. U oilasi uchun o'zini fido qilishga tayyor edi. Bu turmushga Raskolnikov qarshi bo'ladi, singlisini fido bo'lishini xohlamaydi. Dunya haqiqiy his-tug'ulari va sevgisini saqlab qolishga harakat qiladi va Luzhin bilan turmush qurishdan voz kechadi. Razumihin Raskolnikovning do'sti va hayotidagi eng sadoqatli insonlardan biri. Doim uning ruhiy holatini tushunishga harakat qiladigan, unga yordam beradigan va qiyinchiliklarini bartaraf etishga intiladigan shaxs hisoblanadi. Raskolnikovning qiyinchiliklarini tushinib, uni qo'llab-quvvatlaydi. Razumihin o'zining mehribonligi bilan Raskolnikovning hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Asarda Razumihin Dunyani(Raskolnikovning singlisi) chin dildan sevib qoladi va uning baxti uchun kurashadi.

Asarda bo'layotgan ishlar yuzasidan tergov ishlarini olib borayotgan yana bir asar qahramoni Porfiri Petrovich. U o'ta bilimli, dunyoqarashi keng, har qanday jinoyatni oxirigacha boroladigan keng fikrli shaxs. U Raskolnikovning ichki qarama-qarshiliklarini va jinoyatga bo'lgan munosabatlarini o'rganadi. Uni jinoyat qilganligini bilsa-da, unga qarshi kurashmaydi. Asar qahramoni Raskolnikovni qilgan jinoyatiga o'zi iqror bo'lishga va o'zining axloqiy masalalari bilan yuzma-yuz kelishga undaydi. Bu uning noan'anaviy usuldagagi tergov turlaridan biri edi. Fyodor Dostayevskiy har tomonlama yetuk roman yaratdi. Romanda Raskolnikovning aqillilagini mehribonligini ya'ni (oxirgi puli bo'lsa-da, notanish insonga berishga tayyor) bilib, bu nega jinoyat qilgani haqida biroz o'yga cho'mamiz. Bu asarda hayotda hamma narsa bo'lishi mumkinligi, hayot doim biz o'ylagandek bir tekkis bo'lmasligi, yaqqol ochib berilgan. Asar qahramoni yolg'on gapirmagan, yolg'ondan yiroq inson bo'lganligi uchun odam o'ldirganini yashirish bir mucha unga qiyinlik qildi. Roman, o'quvchiga insonlarning haqiqiy yuzini ochib berish bilan birga, inson tabiatning murakkabligini va ijtimoiyadolatsizliklarni o'rganishga undaydi. Ushbu asar, nafaqat adabiy qiziqishlarni qondiradi, balki o'quvchilarni o'z hayotlari va jamiyatlari haqida chuqurroq o'ylashga ham ilhomlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fyodor Dostayevskiy "Jinoyat va jazo" Toshkent-2021, 336 b.
2. Bahodir Karim "Ruhiyat alifbosi" Toshkent-2018-yil, 2-bet.
3. Бахтин. М. М. "Проблемы поэтики Достоевского". Москва: Издательство Академии Наук, 1963.(Dostayevskiyning romanlari strukturasi va dialogik uslubi haqidagi tadqiqot.)
4. Ziyo.com.uz sayti.